

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

XAYDARALIEV Shuxrat Abdulazizovich

Namangan davlat universiteti

Tarix fanlari nomzodi

dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13234496>

O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI BILAN PRAGMATIK HAMKORLIK SIYOSATI

ANNOTATSIYA

O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlik jarayonlaridan manfaatdor. Uning manfaatlari mintaqa manfaatlari mutanosib. O‘zbekiston tashqi siyosatda pragmatik siyosat olib borib, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari rivojiga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ichki siyosatda bozor iqtisodiga yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan besh tamoyil asosida bosqichma-bosqich, evolyutsion yo‘ldan bormoqda. Shu bilan birga, respublika demokratik jamiyat qurish yo‘lidan odimlab, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy sohalarida islohotlarni amalga oshirmoqda.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, pragmatik siyosati, tashqi siyosat, mintaqaviy hamkorlik, ichki siyosat, demokratik jamiyat, Buyuk Ipak yo‘li, Savdo, iqtisodiy, investitsiyaviy, hamkorlik, rivojlantirish, taraqqiyot, xalqaro ekspertlar, barqarorlik, xavfsizlik, taraqqiyot, Harakatlar strategiyasi, do‘stlik, qo‘shnichilik.

UZBEKISTAN WITH THE COUNTRIES OF CENTRAL ASIA POLICY OF PRAGMATIC COOPERATION

ANNOTATION

Uzbekistan is interested in regional cooperation processes. Its interests are proportional to the interests of the region. While Uzbekistan is pursuing a pragmatic policy in foreign policy and serving the development of regional cooperation processes, in domestic policy the market economy is following a step-by-step, evolutionary path based on Five Principles put forward by our country. At the same time, the Republic is pursuing reforms in the economic-social and cultural spheres, following the path of building a democratic society.

Keywords: Central Asia, pragmatic policy, foreign policy, regional cooperation, domestic policy, democratic society, Great Silk Road, trade, economic, investment, cooperation, development, development, international experts, sustainability, Security, Development, Action Strategy, Friendship, neighborhood.

ЎЗБЕКИСТАН СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ПОЛИТИКА ПРАГМАТИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА

АННОТАЦИЯ

Ўзбекистан заинтересован в процессах регионального сотрудничества. Его интересы пропорциональны интересам региона. Если во внешней политике Ўзбекистан проводит прагматичную политику и служит развитию процессов регионального сотрудничества, то во внутренней политике он идет поэтапным, эволюционным путем, опираясь на пять принципов, выдвинутых Главой государства в сторону рыночной экономики. В то же время республика идет по пути построения демократического общества, проводя реформы в экономико-социальной и культурной сферах.

Ключевые слова: Центральная Азия, прагматическая политика, внешняя политика, региональное сотрудничество, внутренняя политика, демократическое общество, Великий Шелковый путь, торговля, экономика, инвестиции, сотрудничество, развитие, прогресс, международные эксперты, стабильность, безопасность, прогресс, стратегия действий, дружба, добрососедство.

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo davlatlari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va uni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratgan edi. O‘tgan yillar maboynida bu borada keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. shuni Ta’kidlash lozimki keyingi to‘rt-besh yil davomida ushbu yo‘nalishdagi O‘zbekiston tashqi siyosati mazmun-mohiyati bilan tubdan yangilandi va yanada katta imkoniyatlar eshigini ochdi.

O‘zbekiston mintakada rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. Bugun O‘zbekiston aholisining soni 32 milliondan oshib ketdi. Shuningdek, u tabiiy resurslarga ham boy o‘lkadir. Bu resurslarning aksariyati o‘z ko‘rsatkichlariga ko‘ra betakroridir. Ekspertlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar kazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chikarish bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlarda turadi. O‘zbekistonda rangli metallarning kirkka yakin koni bor.

O‘zbekiston mis va uran ishlab chikarish bo‘yicha jahonning peshkadam o‘n mamlakati katoriga kiradi. U kumush, rux, ko‘rg‘oshin va volfram zahiralari bo‘yicha ham jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimiz ancha katta energetik salohiyatga ega. O‘zbekiston hududida umumiy zahiralari to‘rt milliard tonnadan ko‘prok bo‘lgan 160 dan ortik neft konlari mavjud. O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha jahonda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Ushbu strategik xomashyoni eksport kilishda O‘zbekiston jahonda yetakchi o‘rinlarda turadi. Bunday ijobiy mazmundagi statistik ma‘lumotlarni yana ko‘plab keltirish mumkin [1].

O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnilik, do‘stona, o‘zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash siyosati savdo-iqtisodiy, kooperatsiya, investitsiyaviy hamkorlikni, shuningdek, mintaqa mamlakatlari o‘rtasida transport logistikasi sohasidagi aloqalarni kengaytirish uchun ishonchli zamin yaratmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish – taraqqiyotni ta‘minlash omili

Xorijiy davlatlar, xalqaro ekspertlar Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosatdagi ustuvor yo‘nalishlari faollashganini Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti sifatida ish boshlagan davr bilan bog‘lashadi. Bu jarayonda O‘zbekiston yetakchisining amaliy harakatlari va tashabbuslari muhim ahamiyat kasb etayotgani e‘tirof etiladi.

Darhaqiqat, davlatimiz rahbarining qo‘shni mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlarni mustahkamlash yo‘lida yuritayotgan tashqi siyosati, avvalo, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minladi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston, shuningdek, mintaqamizning investitsion jozibadorligiga yo‘l ochdi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki birinchi vitse-prezidenti Filipp Bennett “Dunyo hamjamiyati Markaziy Osiyoga ulkan imkoniyat va rivojlanish mintaqasi sifatida tobora katta e’tibor qaratmoqda. Bugun mintaqada kechayotgan jarayonlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, biz kelajakka komil ishonch bilan boqayapmiz. O‘zbekistonda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi ulkan maqsadlarni ko‘zlaydi. Biz yangi kuch-g‘ayrat bilan hayotga tatbiq etilayotgan tashabbuslardan hayratdamiz. Bu tashabbuslarni qudratli xususiy sektor ko‘magisiz ro‘yobga chiqarib bo‘lmaydi. Mamlakatda amalga oshirilgan valyuta islohotlari O‘zbekistondagi islohotlar muvaffaqiyatiga ishonchni mustahkamlamoqda. Biz yurtimizda biznesga ma‘muriy ta’sirni qisqartirish, muloqotni kuchaytirish, sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, investitsiyaviy muhitni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlaymiz. Binobarin, ushbu yangiliklar mintaqaning dunyo biznesi uchun jozibadorligini oshiradi.

D. Patritsiu nomidagi Yevrosiyo markazi direktori, Atlantika kengashi (AQSh) Jon Edvard Xerbst mintaqa mamlakatlari hamkorligi va unda O‘zbekistonning o‘rni masalasida “Biz so‘nggi 25 yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari qanday rivojlanganiga guvoh bo‘ldik. Mintaqa davlatlari katta sa’y-harakatlar tufayli tinchlik va barqarorlikni saqlab keldi. Bu ulkan muvaffaqiyat. Vaholonki, o‘z vaqtida hududda muammolar talaygina edi. O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etildi. Yirik yadro quroliga ega mamlakatlarga qo‘shni bo‘lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo ushbu tamoyilga sodiq qolmoqda.

Istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqada qo‘shni mamlakatlarning hamkorligi evazigagina taraqqiy topishi mumkin. AQSh bu jarayonda har tomonlama yordam berishga tayyor” [2].

Prezidentimizning Oliy Majlisga so‘nggi Murojaatnomasining tashqi siyosat bo‘limida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Davlat yetakchisi tashqi siyosatimizning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko‘p asrlik do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va o‘zaro ishonch ruhida aloqalarimizni yanada mustahkamlash alohida e’tiborda bo‘lishini ta’kidladi.

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o‘tgan yili Toshkentda Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etilib, joriy yil 15-16 iyul kunlari poytaxtimizda “Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o‘zaro bog‘liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar” mavzuida yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining yillik maslahat uchrashuvlarini tashkil etish tashabbusi ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Birinchi shunday uchrashuv 2018 yili Nursultonda, ikkinchisi 2019 yili Toshkentda o‘tkazilgan bo‘lsa, uchinchisi pandemiya sabab 2021 yilga qoldirilgan.

Shunisi ahamiyatliki, davlatimiz rahbari ilk xorijiy tashriflarini 2017 yilning mart oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan boshladi: avval Turkmaniston va Qozog‘iston, so‘ng Qirg‘iziston va Tojikistonga tashriflar amalga oshirildi. Ushbu tashriflar chog‘ida biznes forumlar o‘tkazilib, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo bitimlarning salmoqli paketlari imzolandi. Bu esa O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro savdo-sotiq, kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, qo‘shni davlatlarning O‘zbekiston bilan chegaradosh hududlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘rnatish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o‘tkazish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi [3].

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O‘zbekistonga javob tashriflari esa ko‘p tomonlama hamkorlik poydevorini yanada mustahkamladi hamda iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik yo‘nalishlarini kengaytirdi.

Birgina 2021 yilning mart oyida Qirg‘iziston rahbari O‘zbekistonga, shu yil iyun oyida esa mamlakatimiz rahbari Tojikistonga tashrif buyurdi. Ushbu tashriflar chog‘ida sanoat kooperatsiyasi yo‘li bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, yirik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish va qo‘shma ishlab chiqarish obyektlarini yaratish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi.

Xususan, keyingi yillarda Qirg'iziston va Tojikiston bilan o'zaro tovar aylanmani ikki baravar ko'paytirish maqsadlari qo'yilib, O'zbekistonda suv ta'minotini sezilarli darajada yaxshilaydigan gidroenergetika loyihalarini birgalikda amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Mahsulotlarimizni Markaziy Osiyo bozorlarida targ'ib qilish maqsadida qo'shni davlatlarda O'zbekiston savdo uylari ochila boshladi.

Shu tariqa O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnilik, do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash siyosati savdo-iqtisodiy, kooperatsiya, investitsiyaviy hamkorlikni, shuningdek, mintaqa mamlakatlari o'rtasida transport logistikasi sohasidagi aloqalarni kengaytirish uchun ishonchli zamin yaratdi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016 yildan 2019 yilgacha bo'lgan savdo aylanmasi 2 barobardan ziyod oshib, 2,5 milliard dollardan 5,2 milliard dollargacha o'sdi.

O'sish ko'rsatkichi Qozog'iston bilan – 1,8, Qirg'iziston bilan – 5, Turkmaniston bilan – 2,7 va Tojikiston bilan – 2,4 barobarni tashkil etdi.

Xususan, 2019 yil mintaqa davlatlarining tashqi savdo aylanmasi hajmi 2016 yilga nisbatan 56 foizga oshib 168,2 milliardni tashkil etdi. Mintaqa davlatlariga jalb qilingan investitsiyalar hajmi esa 2019 yil 2016 yilga nisbatan 40%ga oshib 37,6 milliardni tashkil etdi. Markaziy Osiyo davlatlariga tashrif buyuruvchi turistlarning soni ham yildan yilga ortib bormoqda. Misol tariqasida mintaqa davlatlariga 2019 yil kelgan turistlar soni 2016 yilga nisbatan 93%ga oshib 18,4 million kishini tashkil qildi.

Mintaqaviy hamkorligining davlatlar xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashda nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini biz koronavirus pandemiyasi davrida ko'rishga muvaffaq bo'ldik. Markaziy Osiyo davlatlari so'nggi yillarda mintaqadagi yangi siyosiy muhit natijasida qisqa vaqt ichida pandemiyaga qarshi muvofiqlashtirilgan siyosat olib borishga muvaffaq bo'lishdi.

Natijada pandemiya davrida koronavirusga qarshi kurashda tibbiyot sohasida axborot va tajriba almashinuvi, o'zaro gumanitar yordam ko'rsatish, chegaralarda yuklarning uzluksiz harakatlanishini yo'lga qo'yishga erishildi. Bu esa mintaqada dunyoning boshqa davlatlariga nisbatan koronavirus bilan kasallanish va uning natijasidagi o'lim sonining kamligini ta'minlashga imkon berdi. Xususan, 29 dekabr holatiga ko'ra Markaziy Osiyoda koronavirus bilan kasallanganlar soni 375 ming kishini, ya'ni dunyodagi jami kasallanganlarning 0,5 foizini tashkil etdi. O'lim holati koronavirus bilan kasallanganlarning 1,7 foizidan iborat bo'lgan bo'lsa, dunyoda bu ko'rsatkich 2,1 foizni tashkil etdi. Bir so'z bilan aytganda, mintaqaviy hamkorlik zamonaviy tahdidlarni bartaraf etishning muhim kafolati ekanligini yana bir bor tasdiqladi [4].

Shu nuqtai nazardan bugun Prezidentimizning tashabbusi va sa'y-harakatlari asosida rivojlanayotgan mintaqaviy hamkorlik Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarida yangi sahifani ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz tomonidan Oliy Majlisga qilingan murojaatnomada Markaziy Osiyoning tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi ekanligini yana bir bor ta'kidlanishi, O'zbekistonning mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashga o'zining barcha imkoniyatlari va salohiyatini safarbar qilishidan dalolat beradi.

2021 yil yanvar-aprel oylarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24 foiz o'sdi. Shu bilan birga, O'zbekistonning umumiy tovar aylanmasida Markaziy Osiyo mamlakatlari ulushi 17,2 foiz ortdi. Bu mamlakatimizda ichki mintaqaviy savdo-sotiqning kengayganidan dalolat beradi.

2021 yil Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning 3,6 foizga o'sishi kutilmoqda

Markaziy Osiyo davlatlari orasida Qozog'iston ulushi O'zbekiston tovar aylanmasining eng katta hajmiga ega. 2020 yilda O'zbekiston bilan mintaqaviy tovar aylanmasida Qozog'istonning ulushi 61, Qirg'izistonniki 18,2, Turkmaniston ulushi 10,6, Tojikiston ulushi esa 10,1 foizni tashkil etdi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining eng asosiy ko'rsatkichi eksport hajmi bo'lib, bunda eksport qilinayotgan tovarlarning chet el bozorlarida kirib borish imkoniyatlarni hamda ularning raqobatbardoshlik darajasini ko'rsatadi [5].

2016 yildan 2019 yilgacha O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksporti qariyb 2 barobardan yoki 1,3 milliard dollardan 2,5 milliard dollargacha va O‘zbekiston umumiy eksportida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi 10,8 dan 14,5 foizga o‘tdi. Shuningdek, eksport hajmi Qozog‘istonga – 1,5, Qirg‘izistonga – 5,5, Tojikistonga – 2, Turkmanistonga 1,8 baravar oshdi. Koronavirus pandemiyasiga qaramay, 2020 yilda Qirg‘iziston va Tojikistonga eksport mos ravishda 13 hamda 23,5 foiz ko‘paydi.

2021 yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlariga eksport hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 21 foiz oshdi. Shuningdek, O‘zbekistonning umumiy eksportida Markaziy Osiyo davlatlari ulushi sezilarli – 19,9 foiz oshdi, ya‘ni eksportning deyarli beshdan bir qismi mintaqa mamlakatlariga to‘g‘ri keldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlariga asosan qayta ishlash sanoatining tayyor mahsulotlari eksport qilinishini hisobga olsak, yetkazib beriladigan xomashyo eksportini hisobga olmagan taqdirda ham mintaqa davlatlarining umumiy eksport hajmidagi ulushi ancha yuqori bo‘ladi.

2020 yil yakunlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo mamlakatlariga 454 million dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki sohadagi umumiy eksportning 45 foizi, 365 million dollarlik to‘qimachilik tovarlari yoki ushbu mahsulotlar umumiy eksportining 20 foizi yetkazib berildi.

“Markaziy Osiyo investitsiyaviy sherikligi” tashabbusini yo‘lga qo‘yish to‘g‘risida Amerika Qo‘shma Shtatlari, O‘zbekiston va Qozog‘istonning qo‘shma bayonoti

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlariga qariyb 150 million dollarlik yengil avtomobillar eksport qilingan, bu esa barcha avtomobillar eksportning 85 foizidan ortiqdir. Shu jumladan, Markaziy Osiyo davlatlar ichida yengil avtomobillar eksport ulushining asosiy qismi Qozog‘istonga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, eksport qilinayotgan elektrotexnika mahsulotlarining 20 foizga yaqini Markaziy Osiyo mamlakatlariga yetkazib berilmoqda va mintaqa bozorlari ayrim tovar pozitsiyalari, xususan, maishiy texnika uchun “qaynoq manzil” hisoblanadi. Masalan, 2020 yilda mahalliy “Artel” kompaniyasi mahsulotlarining Qozog‘iston va Qirg‘izistondagi yarim avtomatik kir yuvish mashinalari bozoridagi ulushi 50, Tojikistonda 70 foizga, oshxonalar plitalari uchun: Qozog‘istondagi ulushi 65, Qirg‘izistondagi ulushi 20 foizga, suv isitgichlar uchun: Tojikistondagi ulushi 58, Qozog‘istondagi ulushi 37 foizga yetdi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bozorlariga eksport qilish hajmini yanada oshirish istiqbollari ulkan. Ta’kidlash joizki, 2020 yilda mintaqa davlatlarining umumiy tashqi savdo aylanmasi 142,6 milliard dollarni tashkil etdi, shundan 12,7 milliard dollari yoki 8,9 foizi ichki mintaqaviy savdo ulushidir[3].

Bizga ma’lumki, 2023 yil 19-20 may kunlari Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Sian shahrida birinchi Markaziy Osiyo-Xitoy sammitini o‘tkazdi. Uchrashuv chog‘ida Sian deklaratsiyasi qabul qilindi va to‘qqizta tarixiy hujjat imzolandi. Sinxua agentligi 19 may kuniyoq 15 punktdan iborat deklaratsiya matnini e’lon qildi.

Sammitda ta’kidlanganidek, bunday uchrashuv bir asrdan ziyod vaqt kutilgan va bu orada misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz bergan. Mintaqa xalqlari uchun qulay istiqbollardan kelib chiqib, birgalikda Markaziy Osiyo va Xitoyning umumiy taqdiri bilan yaqinroq hamjamiyatni yaratish istagini tasdiqlashdi.

Tomonlar natijadorlikka erishish mexanizmlarini yaratib, har ikki yilda uchrashishga kelishdi. Deklaratsiyada katta maqsadlar ochib berilgan. Davlatlar to‘siqsiz savdoni ta’minlash va Markaziy Osiyo davlatlaridan Xitoyga tayyor mahsulot hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasining umumiy makonini shakllantirish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni qabul qilishni nazarda tutuvchi "Markaziy Osiyo–Xitoy" yangi iqtisodiy muloqotining qo‘shma strategiyasini ishlab chiqish muhimligini qayd etdi.

Xususan, hujjatning 7-bandiga asosan “Tomonlar muhim Transevrosiyo transport markazlaridan biri bo‘lgan Markaziy Osiyoning maqomini ko‘tarish, “Xitoy–Markaziy Osiyo” transport koridori rivojini jadallashtirish, “Xitoy–Markaziy Osiyo–Janubiy Osiyo”, “Xitoy–Markaziy Osiyo” yo‘nalishlarida multimodal tranzit transportini rivojlantirish zarurligini ta’kidlashda [6].

“Yaqin Sharq, Xitoy–Markaziy Osiyo–Yevropa”, shu jumladan, “Xitoy–Qozog‘iston–Turkmaniston–Eron” hamda “Trans–Kaspiy” yo‘nalishlari bo‘yicha Aqtau, Kurik va Turkmanboshi dengiz portlari, shuningdek Termiz shahrining tranzit va transport imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish ko‘zda tutilgan. Tomonlar birgalikda transport infratuzilmasini rivojlantirib, Xitoydan Markaziy Osiyoga yangi temir yo‘l va avtomobil yo‘llarini qurish va modernizatsiya qilish ishlarini boshlab yuboradilar”.

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi munosabatlar strategik ahamiyatga ega. “Bir makon, bir yo‘l” loyihasi doirasida Markaziy Osiyo iqtisodiy o‘shishiga erishish mintqa mamlakatlari, jumladan, O‘zbekistonning nufuzini oshiradi.

Sian deklaratsiyasi qabul qilingandan keyin Xitoy mintqa mamlakatlari bilan aloqalarni uzviy mustahkamlash va chuqurlashtirishga intilib, “C+C5” formatidagi mexanizm orqali Markaziy Osiyoda o‘z ta’sirini kuchaytiradi. Bundan tashqari, o‘zaro hamkorlik va kelajak uchun yangi loyihalar uchun zamin yaratiladi.

Yuqoridagi loyihalarning markaziy nuqtasida XVI asrdan o‘z faoliyatini to‘xtatgan Buyuk Ipak yo‘lini yana tiklash va mintaqaning imijini oshirish maqsadi yotibdi. Bu maqsadlarga erishishda O‘zbekiston yetakchi mavqeni egallaydi.

Markaziy Osiyo mintaqaviy integratsiyasiga oid xulosalarimizni bayon etsak, geosiyosiy manfaatlardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy ittifoqini tuzishga zarurat paydo bo‘lgan. Chunki yaqin 5 yil ichida mintaqada Xitoyning ta’siri kuchayib boradi, garchi iqtisodiy imkoniyatimiz Sian deklaratsiyasiga binoan ijobiy tarafga o‘zgarsa-da, ijtimoiy va siyosiy muammolarga duch kelishimiz ehtimoli mavjud.

Bizningcha, bu masalada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2022 yilda ilgari surgan umumiy xavfsizlik va taraqqiyotga qaratilgan “Samarqand birdamlik tashabbusi” Markaziy Osiyo davlatlarini yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning geografik jihatdan Markaziy Osiyo markazida joylashuvi mintaqadagi savdo-sotiq doirasida tovarlarni qo‘shni mamlakatlar bozorlariga qisqa yo‘nalishlar bilan yetkazib berish va transport xarajatlarini minimallashtirishga yo‘l ochadi. Bu esa mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshiradi va eksport hajmini ko‘paytirish uchun qulay imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bugungi davrda O‘zbekiston o‘zini jahon siyosatida barcha dolzarb masalalarni o‘zaro manfaatdorlik, bir-birining ichki ishlariga aralashmaslik prinsiplariga asoslangan holda, muzokaralar yo‘li bilan, xalkaro hukuk normalariga mos ravishda xalq etish tarafdori sifatida namoyon kilmokda. Demak, ta’lim - tarbiya, ma’naviy - ma’rifiy ishlar sohasidagi ilmiy-innovatsion islohotlar O‘zbekistonni kuchli mamlakat sifatidaginufuzini oshirmokda. Ikkinchidan, jahonda yuz berayotgan ulkan geosiyosiy o‘zgarishlarni o‘z vaktida anglash va ularga fakat va fakat O‘zbekiston milliy manfaatlari nuqtai nazaridan munosabat bildirish fazilatlarini yosh mutaxassis kadrlarda shakllantirish - davlat kadrlar tayyorlash siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida qayd etish mumkinki, O‘zbekiston olib borayotgan ochiq va o‘zaro manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlarida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Qo‘shni davlatlar O‘zbekistonning ishonch va yaqin qo‘shnilik muhitini yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlarini yuqori baholamoqda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqani barqaror, xavfsiz, hamkorlikda gullab-yashnagan makonga aylantirishga tayyorliklarini izhor qilmoqda. Bu esa mintqa davlatlari iqtisodiyotlarning tezkor taraqqiyotiga yordam beradi.

REFERENCES. ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 11 ноябрь № 228(6922)сон.
2. Жон Эдвард Хербст . Марказий Осиё: умумий келажак учун масъулият. “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 14 ноябрь.
3. Ҳақимов О. Марказий Осиё давлатлари ўртасида савдо-иқтисодий ва инвестициявий ҳамкорликни ривожлантириш – тараққиётни таъминлаш омили <https://review.uz/oz/post/razvitie-torgovo-ekonomicheskogo-i-investicionnogo-sotrudnichestva-mejdu-stranami-centralnoy-azii-kak-faktor-obespecheniya-ix-razvitiya>
4. Мустафаев Б. Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови <https://yuz.uz/news/ozbekistonning-mintaqaviy-siyosati-markaziy-osiyo-da-barqaror-va-izchil-rivojlanishining-muhim-garovi>
5. "Янги Ўзбекистон" газетаси.№ 125 (381), 2021 йил 22 июнь
6. Омонов Б. Марказий Осиё давлатларини яқинлаштириш йўлида. https://uza.uz/ru/posts/markaziy-osiyo-davlatlarini-yaqinlashtirish-yolida_524982?q=%2Fposts%2Fmarkaziy-osiyo-davlatlarini-yaqinlashtirish-yolida_524982